

**Qo'chqorova E'zoza**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

[quchqorovaezoza2005@gmail.com](mailto:quchqorovaezoza2005@gmail.com)

---

## MUSTAQILLIK- ENG OLIY NE'MAT

**Annotatsiya:** Mustaqillik xalqimiz uchun eng buyuk ne'matlardan biridir. Mustaqillik yillarida ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, muqaddas dinimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rin oldi. Ushbu maqolada Vatanimizning mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrlarini va mustaqillikdan keying o'zgarishlarni qisqacha ko'rib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** Mustaqillik, bag'rikenglik, milliy o'zlik, din erkinligi, davlat ramzlari, qadimiy an'analar.

**Аннотация:** Независимость – одно из величайших благ для нашей страны. За годы независимости были восстановлены наша древняя история, богатое наследие, национальная государственность, священная религия. Сегодня из глубины наших сердец произошли такие благородные качества, как доброта, толерантность, солидарность, уважение к национальным и общечеловеческим ценностям, чувство сопричастности судьбе и будущему Родины. В этой статье мы кратко рассмотрим периоды до обретения независимости нашей страны и изменения после обретения независимости.

**Ключевые слова:** Независимость, толерантность, национальная идентичность, свобода вероисповедания, государственные символы, древние традиции.

**Annotation:** Independence is one of the greatest blessings for our people. During the years of independence, our ancient history, rich heritage, national statehood, and sacred religion were restored. Today, noble qualities such as kindness, tolerance, unity, respect for national and universal values, and a sense of responsibility for the fate and future of the homeland have deeply settled in our hearts. In this article, we will briefly review the periods leading up to the independence of our homeland and the changes that have occurred since independence.

**Keywords:** Independence, tolerance, national identity, religious freedom, state symbols, ancient traditions.

### KIRISH:

Jonajon Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgani va mustaqil taraqqiyot yo'lini boshlaganiga 33 yil to'ldi. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi 1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan va har yili 1-sentabr kuni bayram sifatida nishonlanib kelinmoqda. Istiqlol el-yurtimiz uchun o'z taqdirining haqiqiy egasi bo'lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishining mustahkam zaminidir.

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etadi. Darhaqiqat, inson tabiatning gultojisi sifatida hamisha ozodlik, erkinlik va hurriyatga intilib yashaydi. U qalbida o'zini hamisha har jihatdan erkin his qilishga, tahlikasiz hayot kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham insoniyat tarixida turli xil davrlarda ozodlik va tenglik uchun intilib yashagan.

Mustaqillik tenglik sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Chunki tenglik bo'lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo'ladi. Bu mustamlakachilikning belgilaridan biri hisoblanadi. Tenglik so'zining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro

munosabatlaridan tortib, mamlakatlararo munosabatlarga hamma narsani me'yor- mezonga soladi.

Istiqlol- o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir- birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlarda asosida yashash demakdir. Mustaqillik- jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir. Istiqlol- erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir.

Biz mana shunday mustaqil, erkin va farovon yurtda yashayapmiz. Buning uchun qancha shukr qilsak ham arziydi. Atrofimizni bir kuzatib ko'raylik. Barcha joyda yangidan-yangi islohotlar olib borilmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng zamonaviy maktablar va bog'chalar, universitetlar qurilmoqda. Bularning barchasi biz yosh avlodlarning kelajagi uchundir. Mustaqillik-bu eng avvalo huquq demakdir. Biz mustaqillik bilan birga yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan har bir insonning o'z qadr-qimmati, or-nomusi, g'ururini anglatadi. Hozirgi vaqtda yurtimizda bo'lib o'tayotgan islohotlar, turli xil o'zgarishlar va tinchlik totuvligimizga hamma havas bilan qaraydi. Bu yutuqlarga mustaqillik bois erishildi. Bizning Vatanimiz bunday yutuqlarga davlatimiz rahbarining qat'iyatli, shijoatli, kelajakka bo'lgan ishonchi, oliyanob fazilatlarini bois, mustaqil taraqqiyot yo'lida uchrayotgan turli xil to'siqlarni yengib o'tmoqda. Mustaqillikning qadr-qimmati va ahamiyati yildan yilga rivojlanib bormoqda. Yurtimizda turli xil islohotlar amalga oshmoqda. Shu ma'noda yurtimiz istiqbolini, u bilan bog'liq tarixiy sana voqea-hodisalarning mohiyatini anglash, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizda alohida o'rin tutadi. Vatanimizning mustaqillikka erishganiga o'ttiz uch yil to'libdiki, shuncha vaqt mobaynida xalqimizning hur va ozod yashashi, baxtli hayot kechirishiga asosiy omil bo'lgan. Mustaqillik bizga ko'p narsalarni berdi. Vatanimiz mustaqil bo'lgandan keyin yurtimizda milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, dinimizga bo'lgan imkoniyatlar yaratildi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin yurtimizda bayramlar ham o'tkazila boshlandi. Bunday imkoniyatlar bir necha yillar avval xalqimizning eng katta istaklaridan bo'lgan. Bunday ishlar xalqimizning mustaqillikka erishishi, milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizning tiklanishi mustaqillikka erishganligimizning ilk qadamlaridan biri bo'lgan. Vatanimiz hozirgi kunda rivojlanib kattadan-katta islohotlar olib borilmoqda. Yurtimiz ravnaqiga kattadan-katta hissa qo'shilmoqda. Mustaqillik bizga milliy o'ziga xosligimizni, or-nomus va g'ururimizni, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarimiz bilan faxrlanish hissini qaytargan bayram sifatida abadiy qoladi va Vatanimiz yilnomasiga oltin harflar bilan yoziladi. Vatanimizda hozirgi kunda nafaqat yirik shaharlarida, balki olis hududlarida ham oliy o'quv yurtlari ochilib, yoshlarning ta'lim olishlari yo'lga qo'yildi. Eng ko'p ta'lim sohasida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Zero, mustaqillikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, shu ulug' va muqaddas Vatanda o'tayotgan tinch-osuda hayotimiz farovon turmushimizning qadriga yetishdek ulug' g'oya va maqsad mujassam. Bularan tashqari xotin-qizlar uchun ham alohida imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallash uchun shart-sharoitlar yaratilib qo'llab quvvatlanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustaqillik eng buyuk ne'mat. Inson erki, sha'ni, qadr-qimmati eng muhimdir. Bu kabi jarayonlarni orqasida bir buyuk inson ya'ni birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning harakatlari natijasida keng imkoniyatlarga erishdik. Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalariga alohida e'tibor berildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab inson huquqi, uning qadr-qimmati birinchi darajali masala sifatida ko'tarilib, barcha huquqiy asoslar yaratildi va yaratilmoqda. Vatanimiz yillar o'tgani sari rivojlanib kattadan-katta islohotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda mustaqilligimizni rivojlantirish biz yoshlarning qo'limizdadir. Biz yoshlar doimo harakat qilishimiz zarur. Vatanimiz doimo rivojlanib ko'plab yangidan yangi ishlar olib borilaversin. Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"  
(Toshkent: Ma'naviyat, 2008).
2. Qodirov.A.S, Xudoyberganov, M. SH. "O'zbekistonning yangi tarixi"  
(1- kitob, Toshkent, 2014).
3. Usmonov. Q. X. "Ozbekiston mustaqilligi va uning tarixiy ahamiyati" (Toshkent: Fan, 2000).
4. Safarov. B. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari va mustaqillik bayrami" (Toshkent: Ma'naviyat, 2010).
5. Davronov. R. "Mustaqillik yillaridagi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi"  
(Toshkent: Universitet, 2018).
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" ( Toshkent: O'zbekiston, 1992).